# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023-YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA’LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz

# Farg‘ona viloyati
# sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 23 944,6 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,6 % ni tashkil etdi.












# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (19 912,1 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (13 819,8 ming so‘m), Toshloq tumanida (8 214,8 ming so‘m) hamda Uchko‘prik tumanida (8 118,9 ming so‘m) ni tashkil etmoqda.











*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **22 241,9** mlrd.so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **92,9 %** ni, tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg‘ona shahri (26,4 %), Qo‘qon shahri (17,6 %), Uchko‘prik tumani 8,1 %), hamda Qo‘shtepa (6,5 %) tumanlari hissasiga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buvayda tumanida (113,5%), Uchko‘prik tumanida (110,8 %) hamda Marg‘ilon shahrida (109,7 %) tumanlarida kuzatildi.






## B seksiya

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **147,4** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,6 %** ini tashkil etdi.



**Yanvar-sentabr**

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 65,5 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 147,4 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 51,4% |
| **2023-y.** | 214,0% |

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **22 241,9** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,9 %** ini tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr**

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 20 327,6 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 22 241,9 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 104,8% |
| **2023-y.** | 102,5% |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

| Yil | Dizel yoqilg‘isi | Avtomobil benzini | Klinker sement |
|---|---|---|---|
| 2023 | 139,7 | 152,6 | 99,6 |
| 2022 | 81,0 | 91.0 | 88.2 |
| 2021 | 113,9 | 122,5 | 119.6 |

| Yil | O‘simlik yog‘i (tozalangan) | Portlandsement | Yumshoq bug‘doy va spelta uni |
|---|---|---|---|
| 2023 | 46,1 | 107.2 | 81,7 |
| 2022 | 93,1 | 93.3 | 89,0 |
| 2021 | 58,6 | 75,7 | 90,6 |

| Yil | Neft bitumi | Aroq ming litr (100% spirt) | Uzum vinosi |
|---|---|---|---|
| 2023 | 186,8 | 106.3 | 116,7 |
| 2022 | 64.5 | 62.5 | 62,9 |
| 2021 | v 2.r | 102,8 | 52,6 |

| Yil | Karbamid | Paxta chigiti | Paxta linti |
|---|---|---|---|
| 2023 | 103.5 | 141,2 | 125,0 |
| 2022 | 96.2 | 157,9 | 175,1 |
| 2021 | 85,6 | 99,1 | 175.6 |

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 241,5 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 52,6% ga ko‘paygan), 325,3 ming tonna dizel yoqilg‘isi (39,7 % ko‘paygan), 81,4 ming tonna kalava ip mahsulotlari (9,6%ga kamaygan) hamda 24816,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (33,3%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.














## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-sentabr | 2023-yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Avtomobil benzini, ming t | 158,3 | 241,5 | 83,2 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 170,9 | 191,9 | 21,0 |
| Paxta chigiti, ming t. | 50,2 | 87,1 | 36,9 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 11,9 | 5,5 | -6,4 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,7 % (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 37,2% (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,1% (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,8%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,0 % (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 17,1 % (16,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 23,6% (21,6%) va quyi texnologiyalisi – 51,9% (54,8%)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 170,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 165,4 % ni tashkil etgan.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 92,2 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 52,0 % ga kamaydi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,7 % ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 2 944,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,7 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3125,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 36,4 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 67,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,5 % ni tashkil etgan.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,9 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 6 656,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 117,6 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,5 %, fizik hajm indeksi 129,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1231,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,3 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni, fizik hajm indeksi 106,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2874,8 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,9 % ni fizik hajm indeksi esa 137,1 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 93,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1180,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni fizik hajm indeksi esa 44,5 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 119,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 690,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 105,8 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 142,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 192,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 84,8 % ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 113,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 305,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni fizik hajm indeksi esa 82,9 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %, fizik hajm indeksi 23,4 % ga ko‘paydi hamda ishlab chiqarish hajmi 696,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 189,8 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 392,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8% ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,7 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

**Yanvar-sentabr**

| | | **D** | |
|---|---|---|---|
| *2023-yil* | **1 392,1 mlrd.so‘m** | | **112,7%** |
| *2022-yil* | **1 268,4 mlrd.so‘m** | | **113,3%** |

*FHI, %da*



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-sentabr | 2023- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | **296,9** | **268,5** | **-28,4** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **971,4** | **1188,0** | **216,6** |

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.

***2023-yil***

***2022-yil***

**Yanvar-sentabr**

***FHI, %da***

**163,3 mlrd.so‘m**

**98,8%**




**170,3 mlrd.so‘m**

**104,6 %**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-sentabr | 2023- yil yanvar- sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **16,2** | **13,8** | **-2,4** |
| Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **22,1** | **15,5** | **-6,6** |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,4 mlrd. so‘m yoki 14,8 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 15,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 23,9 %ga kamaydi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 279,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 101,3 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 22,0%ni tashkil etdi.







Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 53,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahri 15,6%, Uchko‘prik tumanida 18,6% hamda Farg‘ona shahrida 9,6%ga to‘g‘ri keladi.



# Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 979,9 mlrd.so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 18,6 %i, Qo‘qon shahrida 822,7 mlrd.so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 15,6 %i shuningdek, Farg‘ona shahrida 504,2 mlrd.so‘mlik iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste’mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 9,6 %ni tashkil etdi.




7282,6 mlrd.so‘m

*2022-yil yanvar-sentabr*

5279,3 mlrd.so‘m

*2023-yil yanvar-sentabr*

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi**






# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1317,0 ming.so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,2 %ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo‘yicha Uchko‘prik tumanida 4112,7 ming so‘m, Qo‘qon shahrida– 2690,9 ming.so‘mga, Qo‘shtepa tumanida 1033,0 ming so‘mga, Marg‘ilon shahrida esa 1485,8 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




**Farg‘ona viloyati**

1855,3 ming so‘m

*2022-yil yanvar-sentabr*

1317,0 ming so‘m

*2023-yil yanvar-sentabr*




2022-yil 108,6%

2023-yil 99,2%

# Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 24,2 %, Bag‘dod tumaniga 9,4% ni , shuningdek, Qo‘qon shahri 12,5% ni, Farg‘ona shahri esa 7,3 %ni tashkil etdi.




**Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi %**






# Hudular bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi shahar va tumanlar orasida Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 18,4%ni, Farg‘ona shahrida 11,6% shuningdek, Uchko‘prik tumanida 13,3 %ni tashkil etadi.

***Hajmi mlrd.so‘m***

**2023-yil yanvar-sentabr** — **2 747,2**

**2022-yil yanvar-sentabr** — **2 787,0**



Jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **52,0%**

***O‘sish sur’ati***

**2023-yil yanvar-iyun** — **98,6 %**

**2022-yil yanvar-iyun** — **114,0 %**

| | | |
|---|---|---|
| **Farg‘ona sh.** | 319,9 | 95,7 |
| **Qo‘qon sh.** | 505,3 | 92,3 |
| **Quvasoy sh.** | 36,2 | 134,0 |
| **Marg‘ilon sh.** | 208,5 | 111,1 |
| **Oltiariq** | 99,9 | 98,6 |
| **Qo‘shtepa** | 158,2 | 110,3 |
| **Bag‘dod** | 177,9 | 89,5 |
| **Buvayda** | 111,2 | 244,4 |
| **Beshariq** | 39,5 | 444,1 |
| **Quva** | 62,6 | 89,0 |
| **Uchko‘prik** | 366,5 | 98,9 |
| **Rishton** | 37,9 | 82,9 |
| **So‘x** | 17,2 | 99,6 |
| **Toshloq** | 255,8 | 70,4 |
| **O‘zbekiston** | 41,8 | 161,3 |
| **Farg‘ona t.** | 12,0 | 430,0 |
| **Dang‘ara** | 166,8 | 111,3 |
| **Furqat** | 105,7 | 88,6 |
| **Yozyovon** | 24,1 | 88,3 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 966,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,8 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi So‘x, Yozyovon, Furqat tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Marg‘ilon shahri (96,1%), Dang‘ara tumani (77,3%), Uchko‘prik tumani (72,0%), Buvayda tumani (74,1%), Bag‘dod tumani (65,3%), tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (47,0%), Farg‘ona tumani (24,7%), Toshloq tumani (17,7%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



*2023-yil 1-oktabr holatiga*

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 12597 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 7949 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 948 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 11,9 %) Qo‘qon shahriga, 897 tasi (11,3%) Farg‘ona shahriga, 784 tasi (9,9 %) Marg‘ilon shahriga, 568 tasi (7,1%) Uchko‘prik tumaniga, 455 tasi (5,7 %) Dang‘ara tumaniga, 455 tasi (5,7 %) O‘zbekiston tumaniga to‘gri kelmoqda.




*Yangi tashkil etilgan*

*Faoliyat ko‘rsatayotgan*

2022-yil — 1428 dona

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

2023-yil — 1400 dona



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

2022-yil — 10723 dona

2023-yil — 7949 dona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 132 ta loyiha boʻyicha 2 163,6 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 20,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

| | 2022-yil yanvar-sentabr | 2023-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni, *birlikda*** | *155 ta* | *132 ta* |
| **Korxonalar soni,** *birlikda* | *115 ta* | *115 ta* |
| **Ishlab chiqarish hajmi** | *1447,9 mlrd.soʻm* | *2 163,6 mlrd.soʻm* |
| **Yaratilgan yangi ish oʻrinlari,** *birlikda* | *558 ta* | *944 ta* |

***Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 944 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi va oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni koʻpayganligi kuzatildi.***